



**MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODIDA TA'LIM-TARBIYA  
MASALALARI**

**Esanova Kamola Ilhomjon qizi**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islom iqtisodiyoti va xalqaro  
munosabatlar fakul'teti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7541025>

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning yetuk namoyandasi, jamoat arbobi, ma'rifatparvar jadid Mahmudxo'ja Behbudiy qalamiga mansub "Padarkush" dramasi mazmun-mohiyati, o'quvchilarga beradigan ma'naviy ozuqasi va bugungi kundagi dolzarbligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Behbudiy, jadidchilik, maqola, Padarkush, ma'rifat, jaholat, maktab, usuli jadid.

Annotation: This article talks about the essence of the drama "Padarkush" written by Mahmudhoja Behbudi, a mature figure of the 20th century, a public figure, enlightener, and its relevance today.

Key words: Behbudi, jadidism, article, Padarkush, enlightenment, ignorance, school, method jadid.

Аннотация: В данной статье говорится о сути драмы «Падаркуш» Махмудходжи Бехбуди, зрелого деятеля XX века, общественного деятеля, просветителя, и ее актуальности в наши дни.

Ключевые слова: Бехбуди, джадидизм, статья, Падаркуш, просвещение, невежество, школа, метод джадид.

XX asrda ijtimoiy hodisalarning almashinish sur'ati aqlga sig'mas darajada tezlashdi. Jadid adabiyoti to'lig'icha millatni uyg'otishga qaratilgan edi. Bu adabiyotning qahramoni avvalgi davrdagiday yuqori tabaqa vakillari yoki ilohiy qudrat bilan nurlantirilgan siymolar emas, balki ommaning ichidan chiqqan, unga qaytib boradigan va shu bois xalqqa ta'sir ko'rsatish imkoniyati kattaroq bo'lgan oddiy kishilar edi.

Jadid yozuvchilari shunchaki ijodkor emas, balki jamoatchi ham edilar. Ular faqat qalami bilan emas, balki ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy amali bilan ham millatni uyg'otishga ahd qilgandilar. Shulardan biri O'rta Osiyo jadidchilik harakati yo'l boshchisi, dramaturg, noshir, din va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy ibn Behbudxo'jadir. Behbudiy o'z zamonining kamchilik va nuqsonlarini ko'rib, uni keltirib chiqargan sabablarini anglagan. Unga yechimlar topishga harakat qilgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi 1911-yilda yozilgan bo'lib, oradan ikki yil o'tgach, ya'ni 1913-yilda kitob hoida nashr qilinadi. Behbudiy o'zbek adabiyoti tarixida birinchilardan bo'lib dramatik asar yozdi va u Turkistonning barcha shaharlarida namoyish etildi. Bu bilan Behbudiy o'zbek



teatrining tamal toshini qo'ydi. Dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma'rifat ulug'lanadi. Muallif «o'qimagan bolaning holi»ni, ayanchli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib oladi. Behbudiy yoshlar ta'lim olishi va kamolga yetishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o'rin tutishini «Padarkush» dramasi negiziga joylashtiradi. Unda qahramonlardan birining tilidan o'z g'oyasini: «Bizlarni xonavayron... bewatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdir, bewatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik, zarurat va xorliqlar... hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir...», degan yo'sinda bayon qiladi.

Dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma'rifat ulug'lanadi. Muallif o'qimagan bolaning holini, ayanchli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib qo'yadi. "Padarkush asari XX asr boshlarida Turkiston xalqlari hayotining eng dolzarb muammolari mavzuida yozilgan bo'lib, u jadidchilik mafkurasining dasturi sifatida ma'rifatparvarlikning tub siyosiy va ijtimoiy maqsadini ifodalagan. Muallif bu pyessada jadidlarning Turkistondagi ijtimoiy tuzum, mustamlaka zulmiga bo'lgan munosabatlarini boy va uning o'qimagan o'g'li misolida tasvirlaydi. Chindan ham, Mahmudxo'ja Behbudiyning Padarkush dramasida ma'rifatparvarlarning ijtimoiy-ma'rifiy g'oyalari o'z ifodasini topgan. Asarda boyni boyluk turganda ilm-ma'rifatning keragi yo'q qabilida ish tutib, o'g'li Toshmurodni takasaltang, noshud qilib o'stirganligi haqida so'z boradi. Boy ilmning afzalligi haqida gapirgan domla va taraqqiyparvar ziyolini jerkib tashlaydi. Pyessaning yakunida o'g'li sheriklari bilan o'z otasini tunash uchun kelib, uning o'limiga sabab boladi. Asar u qadar katta emas, syujeti ham sodda, biroq muallif unga teran ma'noni singdira olgan: ma'rifatdan, ilmdan yiroq boylar, ularning savodsiz jamiyatining yakuni shundaydir. Behbudiy millat bolalarining ilmsiz bolib o'sishiga yo'l qo'ymaslik kerakligi, ularning ilmga intilishlarini qo'llab-quvvatlash haqida jon kuydiradi. U dunyoviy ilmlarni diniy bilimlar bilan bir qatorda ko'rishni ham qarz, ham farz deb biladi. Pyessa ommaga shu qadar ta'sir qildiki, keyinchalik ko'pchilik boylar ilm yo'lida usuli jadid maktablarini ochishga mablag'larini ham ayamadilar. Bu asar bir maktab, ibrat vazifasini o'tadi: xalqni ozodlikka chaqirdi. Behbudiy kuyinib bunday deb yozgan edi: ...oynay turgon odam yo'q, abaski, Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Va bekor odam yo'qki, teatr sahnasiga chiqib, masxarabozlik qilsa. (Chunki Turkistonda teatrni masxarabozlikdan ayirmadilar), qachonki masxarabozlik (artistlik) xizmatini zimmasiga oluvchi o'n kishi topilsa o'ynalur. Asar muallifi Mahmudxoja Behbudiy va spektakl ijodkorlari o'sha davrning bir qator katta muammolarini ko'tarib chiqqanlar. Shulardan biri Turkistonni mustamlakaga aylantirganlar



ta'sirida yomon illatlar kirib kelgani ham ko'rsatib berilgan. O'sha davr matbuotiga asoslangan holda to'la ishonch bilan aytamizki, spektakl juda katta muvaffaqiyat qozondi. Oyna jurnalining 1914-yil 22-mart sonida Fuzoil Joniboevning Toshkentda milliy teatr nomli maqolasida unda aktyorlar o'z rolini muvaffaqiyatli ijro etganligi, ayniqsa, Abdulla Avloniy ijrosida boy obrazi tolaqonli gavdalantirilganligi ta'kidlab o'tildi. Turkistondagi Milliy uyg'onish - jadidlar Renessansini xorijdagi olimlar ham tan olib, o'z asarlarida bunga amal qilmoqdalar. Shu o'rinda yapon olimi Xisa Komatsu o'zining "Chig'atoy gurungi"da turk dunyosini uyg'otish yo'lida jon tikkan adiblar iborasini ishlatishi, nemis olimi Ingobarg ham Turkiston uyg'onishi haqida yozganini eslash kifoyadir.

Haqiqatdan ham, jadidlar yuqorida ko'rsatib o'tilganligi va musulmon mutaassibliki kuchli bo'lishiga qaramay, jamiyatda tub madaniy taraqqiy burilish yasashga muvaffaq bo'ldilar. Turkistonda milliy tafakkur o'zgardi, millat ijtimoiy g'aflat uyqusidan uyg'onib, siyosiy va ma'rifiylashdi. Millat adabiyoti yangilandi, milliy teatr, maorif va maktab, matbuot, madaniy-ma'rifiy uyushma (jamiyat) va siyosiy partiyalar paydo bo'ldi. Padarkush asari hozirgi kunda ham nafaqat yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasi va ma'naviy kamolotiga, balki kattalarning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsata oladigan drama sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Targ'ibot-tashviqot ishlarida, turli tadbirlarda ushbu asar bilan bog'liq muhokamalar va munozaralar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, o'qimagan bolaning holi, kelajakda qanday bo'lishi Padarkushda to'la namoyon bo'lgan. U ayni chog'da yangi usuldagi maktablarning asoschisi va targ'ibotchisi, yangi darsliklarning ilk muallifi ham bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Mahmudxoja Behbudiy buyuk ma'rifatparvar va yetakchi jadidchi sifatida milliy madaniyatimiz tarixidan mustahkam o'rin egallaydi va uning qalamiga mansub Padarkush dramasi millat ongini uyg'otishga qodir asarlardan sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Akram, X. (2022). Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida vatan tushunchasining millat tili va tarixi bilan bog'liq badiiy konseptlari. Principal issues of scientific research and modern education, 1(4).
2. <https://fayllar.org/z-m-bobur-nomidagi-andijon-davlat-universiteti-v4.html>
3. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-shuhratrizaev-abdulla-avloniy-1878-1934>
4. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) – orifto.lib.uz





5. Xaliqova, N. J., & Tojiboyeva, G. A. Q. (2021). Jadid adabiyotida ayollar timsoli. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 1495-1502.
6. Mavlonova, R. A., Normurodova, B., & Rahmonqulova, N. (2010). *Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.:" Tib-kitob*.

